



O‘ZBEK BOLALARI NUTQINING PSIXOLINGVISTIKADA O‘RGANILISHI

*Rahimova A’loxon A’zamjon qizi,
Otaboyeva Zebuniso Sodiqjonovna
Farg‘ona viloyati Beshariq tuman
2-son texnikumi ona tili va adabiyot
fani o‘qituvchilari*

Annotatsiya: Quyidagi maqolamizda ontolingvistik bilimlar, lisoniy qobiliyat, lisoniy faollik, bolalar nutqining shakllanishi, maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar hamda maktab o‘quvchilarining nutqiy kamchiliklari haqidagi, bolalarda nutqning shakllanish jarayonlarini ilmiy asoslab bergan bir qancha psixolingvist olimlarning ilmiy izlanishlarini havola etamiz hamda assotsiativ metod asosida tuzilgan jadvalni tahlil qilamiz. Hozirda yuqori sinf o‘quvchilarining nutqi yo‘qolib borayotganligi hamda nutning xulq bilan o‘zaro bog‘liqliklarini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: nutq, psixolingvistika, assotsiativ metod, ontolingvistika, lisoniy qobiliyat, lisoniy faollik, alaliya, afaziya.

Annotation: the formation of children’s speech in the following article, ontolinguistic knowledge, linguistic ability, linguistic activity, about speech defects in preschool and school children, we refer to the scientific research of several psycholinguists who have scientifically substantiated the processes of speech formation in children and analyze the table based on the associative method. Now let’s look at the disappearance of high school student’s speech and the relationship between speech and behavior.

Key words: speech, psycholinguistics, associative method, ontolinguistics, alalia, aphaziya, linguistic ability, linguistic activity.



“Psixolingvistika” ilm-fanga yangi kirib kelgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Psixolingvistika atamasi amerikalik olimlar tomonidan ilmiy hayotga olib kirilgan. Ilk marta bu atama 1946-yilda Amerika psixologi N.Pronko tomonidan “Til va psixolingvistika” maqolasida qo‘llaniladi. 1953-yil Indiana shtatining Blumington shahrida mashhur Amerika psixologlari Dj.Kerol va Ch.Osgudlar bilan taniqli tilshunos va etnograf T.Siboeklar tomonidan o‘tkazilgan universitetlararo seminarda tilshunoslik bilan psixologiya munosabatlari muhokama etildi va psixolingvistika nomi bilan ataluvchi alohida fan yo‘nalishi bo‘lishi lozimligi ta’kidlandi. Shu tariqa psixolingvistika fani vujudga keldi. Psixolingvistika (*ingl.psycholinguistics*) psixologiya va lingvistika fanlarining umumlashmasi sifatida nutq jarayonini mazmun nuqtai nazaridan kommunikativ ahamiyati, nutq holatining muayyan ijtimoiy-amaliy maqsadga yo‘naltirilganligi, muvofiqligi jihatidan o‘rganadi [1,63-64].

Bolalar nutqini tahlil qilar ekanmiz, avvalo, nutq nima ekanligiga to‘xtalib o‘tamiz. Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turidagi muayyan shakli. [2]

f.de Sossyur tomonidan olib kirilgan til va nutqning farqlanishi haqidagi psixolingvistik tadqiqotlarda “nutqiy faoliyat” tushunchasining yanada aniqroq bo‘lishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. F.de Sossyur nutqiy faliyatni til va lisoniy qobilyatning birligi sifatida tushuntirgan.

Aynan bolalar nutqini o‘rganish olimlarda katta qiziqish uyg‘otgan. Va bu boradagi ilmiy izlanishlar 18-asr oxiri 19-asrlardan boshlangan. Bolalar nutqiga oid dastlabki qarashlar Germaniyada D.Tideman tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Faylasuf, psixolog va tarixchi I.Tenning 1877-yilda “Mind” jurnalida chop etilgan maqolalari, CH.Darvin hamda M.Xemfrining bolalar muloqot xulqini aks ettiruvchi misollar jamlangan kundaliklaridan parchalar, nemis fiziologi V.Preyrning bolalar nutqi tahliliga oid qaydlar, P.Kruze tomonidan yoshli



bola soʻz zaxirasini oʻrganish asosida toʻplangan muayyan leksikostatistik maʼlumotlar ushbu yoʻnalishning rivojlanishiga muhim hissa boʻlib qoʻshilgan. Shuningdek bolalar nutqi A.Garbining 1889-yilda Italyan tili materiali asosida nashr qilingan ilmiy ishida ham tadqiq etilgan.[3, 3-bet]

XIX asrning birinchi yarmiga kelib, bolalar nutiga xos lingvistik materiallarni tadqiq etishga jiddit eʼtibor qaratila boshlandi. V.SHtern va K.Shtern hammuallifligida Germaniyada chop etigan monografik tadqiqot shular jumlasidandir. Ushbu monografiya ikki tadqiqotchining faarzandlari Gilda va Gyunter nutqining kundalikka tushirilgan qaydlariga asoslangan oʻz farzandlarini nutqini qogʻozga tushirgan V.Leopoldning 4 jilddan iborat bolalar nutqining keng tahlilini oʻz ichiga olgan asari, shuningdek, uning qizi Gildegard nutqining toʻliq qaydlari bilingival (“bilingvizm”, ikki tillilik – ikki tilni yoki muayyan adabiy til va uning dialektini mukammal bilish)[5, 91-bet] bolalar nutqiga oid muammolar tadqiqiga bagʻishlagan.

Tarixda taniqli olimlar J.Piaje va L.S.Vigotskiy asarlarida goʻdakning egosentrik nutqi, ichki nutqi, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanish davrlari, ularning muloqot xulqiga xos stimullar va bunda taraqqiyotning psixologik jihatlari chuqur tahlil qilingan. XX asrda psixologiya yoʻnalishi boʻyicha faoliyat koʻrsatgan baʼzi olimlar bolalar nutqini oʻrganishda tajribaviy tadqiqotlar natijasida olingan maʼlumotlardan keng foydalanganlar.

Demak, mazkur davrda rus tilshunoslari tomonidan bolalar soʻz –ijodining lingvistik jihatlariga emas, balki psixologik jihatlariga jiddiy eʼtibor qaratilgan. Masalan, XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslikda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini oʻrgangan A.A.Leontev va A.M.Shahnarovichning tadqiqotlari, E.I.Negnevitskaya singari olimlarning ilmiy ishlari yuzaga keldi. Chunki soʻz-ijod jarayonini tadqiq qilishda ushbu xolatning bola lisoniy qobiliyati rivojlanishiga taʼsirini alohida eʼtiborga olish maqsadga muvofiqdir. [3, 5-bet]



Lisoniy qobiliyat (linguistic competence) tushunchasi N.Xomskiy tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. N.Xomskiy lisoniy qobiliyatni mazkur tilde soʻzlashish qobiliyatini tashkil qiluvchi sifatida izohlagan. Maʼlumki, kishi tovushlar birikuvi soʻzlar bogʻlanishi, umuman tildagi soʻzlar tizmining qoʻllanilishini onasidan, tevarak-atrofdagi yaqinlaridan eshitib oʻz ona tilini oʻzlashtiradi (ayni holat tilshunos yoki tilni har qanday oʻrganuvchida ham kuzatiladi). Bunday tizimdan foydalanish natijasida inson ona tilidagi cheksiz soʻz turkumlari, jumlar va matnlarni hosil qilish qobiliyatini egallab boradi. Shunga koʻra, lisoniy qobiliyatni soʻzlovchi va tinglovchi til bilimining potentsiali, deb izohlash mumkin. N.Xomskiy “lisoniy qobiliyat birlamchi boʻlib, u lisoniy faollikni belgilaydi”, - deb hisobladi. Transformatsion grammatika tarafdorlari ham asosiy urgʻuni lisoniy qobiliyatga berishdi.[5,25-bet]

Xomskiy qarashlaridan qanday xulosaga kelishimiz mumkin? Xomskiy bolada til va nutqning shakllanishini uning atrofidagi insonlar taʼsirida rivojlanishini isbotlamoqchi boʻlgan. Oiladagi muhit natijasida til shakllansa, demak, shu muhit natijasida bolada nutq xulqi ham rivojlanib boradi. Agar bolada nutq xulqi oiladagi yoki atrof-muhitdagi voqea yoki shaxlar taʼsirida shakllansa, *alaliya* ham shundan kelib chiqishi mumkin.

Alaliya (yunoncha *a* – inkor yuklamasi va qadimgi yunon tilida *lalia* – nutq) –nutqiy buzilishning bir koʻrinishi boʻlib, u aqli raso, eshitish qobiliyati bekam-u koʻst boʻlgan bolalarda nutning boʻlmasligi yoki nutqning juda kech paydo boʻlishi bilan tavsiflanadi.[5, 91-bet]

N.Xomskiy transformatsion tahlil doirasida til tizimidagi har qanday jumlaning botiniy va zohiriy strukturaga ajratadi. Botiniy struktura tushunchalarning maʼno tomoni, zohiriy strukturani esa muomaladagi soʻzlar bilan aloqador qiladi. Yaʼni zohiriy struktura bu –biz eshitadigan va oʻqiydigan jumlar, botiniy struktura esa jumlamning maʼnosi bilan bogʻliq tomoni. Botiniy strukturalar zohiriy strukturalarda



shunchaki tiklangan yoki transformalar shaklida qayta tiklangan bo‘lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, reakizatsiya qilingan matnda aks etmagan, biroq qandaydir holatda, botinda nimadir mavjud. N.Xomskiyga ko‘ra, transformatsion tahlil sintaktik strukturalarning zohiriydan botiniyga aylanish yo‘li bilan tahlil qilishdir. N.Xomskiyning transformatsion modeli tabiiy til ifodalarini avtomatik sxemalarga solish imkoniyatiningina yaratgan edi. Xomskiy keyinchalik insonning nutqiy faoliyati muammolari bilan qiziqqa boshladi. Xomskiy lisoniy qobiliyat hamda lisoniy faollik tushunchalarini rivojlantira boshladi.[5, 26-bet]

Xomskiy nazaryasiga ko‘ra lisoniy qobiliyatning shakllanishi uchun lisoniy faollik ham zarur. N.Xomskiy lisoniy faollikni aniq sharoitlarda tilning kundalik qo‘llanilishi deb tushuntiradi. Lisoniy faollik nutqiy faoliyatda lisoniy qobiliyatni amalga oshirishda yuz beradigan jarayondir. Ya’ni lisoniy faollik ona tilini o‘zlashtirgan kishi egallagan til bilimlarini amalda qo‘llay olishidir. Bu Noam Xomskiyning transformatsion yo‘nalishi edi. Uning dastlabki izlanishlarida psixologiya ko‘zga tashlanmagan.

O‘zbek tilshunosligida bolalar nutqi masalasi XX asrning 80-90-yillaridan boshlab alohida yo‘nalish sifatida o‘rganib kelinmoqda. Jumladan, O.Umarxo‘jayeva hamda M.Ismoilovning bu boradagi qator maqolalari monolingval va blingval o‘zbek bolalari niqtida kuzatiladigan ayrim fonetik o‘zgarishlar va grammatik xususiyatlar talqiniga bag‘ishlanadi. O‘zbektilshunosligida maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqotga kirishish xususiyatlari muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lib, ushbu mavzuga oid amaliy kuzatuvlar va nazariy xulosalar G.Iskandarovning qator maqolalarida o‘z ifodasini topgan. Ularda bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishuvi, bola ideodelektining shakllanishi, bola nutqining ijtimoiylashuvi kabi masalalar 6 oydan 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqi misolida ijtimoiy-lisoniy nuqtai nazardan tahlil qilingan. N.Saidrahimova tomonidan amalga oshirilgan maktabgacha yoshdagi



bolalar nutqining lingvistik xususiyatlariga oid tadqiqotlarda go‘dak nutqining shakllanish va rivojlanish davrlari ajratilib, ontogenezning filogenezni takrorlamasligi misollar yoerdamidida asoslangan. Ularda bolalar nutqidagi gapning qurilish va ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, peredikatsiyaning paydo bo‘lish masalalariga oydinlik kiritgan.[3, 8-bet]

Ontogenez (yunoncha onto –borliq va genez) – organizmning individual rivojlanishi, uning shakllana boshlashidan hayotning oxirigacha sodir bo‘ladigan ketma-ket o‘zgarishlar majmuyidir. Ontolingvistika esa bolalar nutqini kompleks holda tadqiq etuvchi yo‘nalish hisoblanadi.

Filogenez (yunoncha phylon –avlod,qabila genez) filogeneya – tirik organizmlar hamda ularning taksonomik guruhlari: olam, tip, sinf, turkumlar, oila, avlod va turlarning tarixiy taraqqiyoti.[o‘z.milliy ensiklopediyasi 2000-2005]

Til lug‘at tizimini o‘zlashtirish lisoniy qobiliyat hamda ijtimoiy kommunikatsiya jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, nutqiy faoliyatda kuzatiladigan spetsifik xususiyatlar ontogenezning dastlabki bosqichidan yetuklik davrigacha bo‘lgan bollar va o‘smirlar muloqotida aniq ko‘zga tashlanadi. O‘zbek bolalarining so‘z o‘zlashtirishi va undan foydalanish jarayonida kuzatiladigan muammolarning yuzaga kelish sabablarini belgilash hamda ularni bartaraf etishda lisoniy va nutqiy vaziyatning ta’sirini alohida e’tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki bolalar nutqi leksikasiga xos umumiy xususiyatlar ularni qurshab turgan ijtimoiy muddatga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi, bolalarning so‘z qo‘llashi jarayonida yuzaga keluvchi o‘ziga xos jihatlar esa ruhiy holatlarini o‘rganish orqali aniqlanadi. Shu jihatdan mazkur tadqiqotda monolingval va bilingval o‘zbek bolalar nutqi leksikasini sotsiolingvistik va psixolingvistik aspektda tadqiq etish orqali funksional semantic jihatdan mushtarak va o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash asosiy maqsad qilib qo‘yildi. Bolalar nutqi leksikasini bunday yondashuvlar asosida tahlil qilish nafaqat ularning maktabgacha yosh davrida, balki o‘smirlik davrida



kuzailadigan kommunikativ xususiyatlarni talqin qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.[3, 8-bet]

Yuqorida ko'pgina ilmiy ishlar haqida ma'lumotlar keltirib o'tdik. Endi o'z xulosalarimiz haqida fikrlashamiz. Biz u yoki bu fanni o'zlashtirishimizda ona tilimizning o'rni katta. Maktab yoshigacha yoki maktab yoshidagi bola u yoki bu ma'lumtlarni kodlaydi va dekodlaydi. Dekodlash jarayonida bolaning nutqi katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslardagi faolligini yoki ishtirokini o'rganib chiqamiz. O'quvchilar aynan ona tili fanida o'z jumllariga aytayotgan har bir so'zlariga e'tibor beramiz. Darsda o'quvchilarning aksariyati ongli ravishda badiiy tilda so'zlaydi. Bizning fikrimizcha, bunga sabab o'qituvchilar tomonidan berilgan ma'lumotni aynan qabul qilyotganliklarida. Bola maktabdan chiqib uyga, oilaviy muhitga qaytganda ham badiiy uslubdagi so'z va jummalardan foydalanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuqori sinf o'quvchilariga nisbatan aniq fanlarning kamligi hamda ijtimoiy fanlarning ko'pligi bola nutqining badiiylashuviga sabab bo'ladi. Yuqori sinfga o'tgandan so'ng esa bola ijtimoiy fanlar bilan teng ravishda balki undan ham ko'proq tabiiy, aniq fanlar bilan shug'illanadi. Masalan, matematika yoki kimyo fanida raqamlar yoki formulalar bilan ishlaymiz. Endi o'quvchilar o'ziga ma'lum b'bir ixtisoslikni tanlaganlaridan so'ng shu sohani shakllantirishga o'zini tayyorlaydi. Natijada boshqa fanlar bilan aloqalar deyarli uzilib qoladi. Ba'zan biz umuman so'z boyligi yetarli bo'lmagan o'qituvchi kadrlarga ham duch kelamiz. Mening fikrimcha, buning asosiy sababini yuqoridagi ilmiy izlanishlarga qarab ham aniqlashimiz mumkin. Inson o'zining lisoniy qobiliyatini lisoniy faolligi bilan shakllantirganligi uchun nutqiy kamchiliklarga duch kelamiz. Bu kodlash va dekodlash jarayonlar bilan ham bog'liq.

Kodlash – ongda jumlaning hosil qilinishi.

Dekodlash – ongda hosil qilingan jumlaning tushunishi.



Assotsiatsiya – til birliklarining shakli yoki mantiqiy-semantik belgisiga ko‘ra o‘zaro ta’siri.

Biz hozir maktab yoshigacha, maktab yoshidagi hamda yuqori sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan assotsiativ eksperimenting jadvali bilan tanishamiz.

Assotsiativ eksperiment – semantikaning psixolingvistik tahlili eng ko‘pishlangan texnika hisoblanadi. Tajriba o‘tkazilayotganda respondentlarga muayyan stimul so‘zlar beriladi va ulardan xayollariga birinchi kelgan reaksiya so‘zlarni aytish so‘raladi.

Ushbu tajribamizning maqsadi turli yoshdagi bolalarning so‘zlarga bo‘lgan munosabatini tekshirish hamda yuorida aytib o‘tganimizdek nutqiy holatlarini o‘rganishdir.

Stimul-so‘z	Reaksiya-so‘zlar			
	3 yosh	6 yosh	11 yosh	17 yosh
<i>Kitob</i>	–	<i>Qizil shapkachani rasmi bor</i>	<i>Matematika</i>	<i>Ma’lumot</i>
<i>Non</i>	<i>Ashsha</i>	<i>kulcha</i>	<i>Biz uchun taomdir</i>	<i>Tandir</i>
<i>Telegram</i>	<i>Bo‘ji (i harfi cho‘zib talaffuz qilingan)</i>	<i>Selfimi?</i>	<i>Ustozim</i>	<i>Chat</i>



<i>Ona</i>	<i>Reaksiyasi yig'lash bo'ldi</i>	<i>Yaxshi ko'raman</i>	<i>Jannat gulim</i>	<i>Mehribon</i>
<i>Televizor</i>	—	<i>Yangi sumka</i>	<i>O'rtoqlarim bilan o'ynayman</i>	<i>Bitiruvchi</i>
<i>Mahalla</i>	—	<i>Kamron, Xandona</i>	<i>Futbol maydonchamiz</i>	<i>Odamlar</i>
<i>Telefon</i>	<i>allo</i>	<i>Raqsga tushaman</i>	<i>Aloqa vositasi</i>	<i>Kalkulyator</i>
<i>Internet</i>	—	<i>Multifilm</i>	<i>Qidiruv bo'lsa kerak</i>	<i>Google</i>

Bu tajribani uyda jiyanlarim bilan birga o'tkazdim. Yuqorida ko'rib turganlaringizdek har biri o'zining yoshiga mos ravishda javob qaytardi. Hattoki, uch yoshli bola ham atrof- muhitdagilarning ta'siri natijasida ma'lumotlarga ega ekanligini aniqladim. Uch yoshli bolada eksperiment o'tkazish qiyin lekin astoydil harakat qilinsa, undan ham javob reaksiyasini olish mumkin ekan. 17 toshli singglim maktab bitiruvchisi. Tabiiy fanlar bo'yicha tayyorgarlik ko'radi. Agar undagi reaksiyalarga e'tibor bersangiz faqat bitta so'z bilan cheklangan. Men buning sababi uning ijtimoiy fanlar bilan, adabiyot bilan umuman shug'illanmay qo'yganligi deb o'yladim.

Agar tilimizdan unumli foydalana olsak, bu bizning eng katta yutug'imizdir. Uni gavhar misoli bilib, unga qancha sayqal bersak shuncha go'zallashadi.



O‘zimizda nutqiy buzilishlarni oldini olishimiz hamda farzandlarimizda nutqiy kasalliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun, avvalo, tilga e‘tiborli bo‘lishimiz darkor.

Adabiyotlar:

1. A.Nurmonov, B.Yo‘ldoshev “ Tilshunoslik va tabiiy fanlar”. “ Sharq “ nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2001
2. [https://uz.wikipedia.org>wiki>Nutq](https://uz.wikipedia.org/wiki/Nutq)
3. Munavvara Qurbonova “O‘zbek bolalar nutqining sotsiopsixolingvistik talqini”. Toshkent. 2004
4. www.enc.for.uz
5. Usmonova “Lingvistika (o‘bek tili) maagistratura mutaxassisligi bo‘yicha ma‘ruzalar kursi. O‘zbekiston Milliy Universiteti. 2014
6. [https://uz.wikipedia.org>wiki> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000-2005](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%27zbekiston_milliy_ensiklopediyasi_2000-2005)